

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA
INDIVIDUAL TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH
MUAMMOLARI**

Raxmonov Azamat Ruzvonovich

CHDPU "Umumiy pedagogika"

kafedrasi pedagogika fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

a.raxmonov@cspi.uz

Gulmurodova Durdona Davlat qizi

CHDPU Boshlang'ich ta'lim fakul'teti

BOT 19/17 gurux talabasi

g.mavlonova@cspi.uz

Annotatsiya:

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan individual ta'limni amalga oshirishda kiritilgan yutuq va imkoniyatlar haqida fikr yuritildi.

Tayanch iboralar: individual ta'lim, o'qitish texnologiyasi, pedagogik texnologiyalar, o'z-o'zini tarbiyalash, o'qitishda muammoli yondashish.

Maktabning ta'lim jarayoniga tasodifiy yondashilmaydi qolaversa, pedagogning xususiy fikridan ham kelib chiqmaydi. O'qitish jarayoni bu, bilish nazariyasi asosida tarkib topadi va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini o'zida aks ettiradi. Hozirgi ilg'or pedagogika texnologiyalarini qo'llash mobaynida inson shaxsini maqsadga muvofiq shakllantirishga, o'z-o'zini tarbiyalashga va ijtimoiy tajribadan iborat tizim sifatida foydalanish mumkin. O'z-o'zini tarbiyalash boshlang'ich sinflarda o'quvchilar o'rtasidagi yaqinlik asosida tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish orqali tashkil topadi va shu bilan insonning shaxsiy ko'nikmalari rivojlanadi. Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayoniga e'tiborli qarash, o'z-o'zini tarbiyalash va ijtimoiy tajribaning birligini o'zida mujassamlashtirishi lozim. O'quv jarayonidagi tarbiya, asosan, o'qitish shaklida, o'z-o'zini tarbiyalash va ijtimoiy tajribaning birligi shaklida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra boshlang'ich sinflarda o'quv jarayoniga ta'lim(pedagogning faoliyati), o'qish (o'quvchining qiziqishi) va ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida qaraladi. Odatda o'qitish, o'quv jarayonining professional tomonini tashkil qiladi. Bolaning shaxs sifatida shakllanishining ikki tomonlama tomoni mavjud ya'ni, tabiati (tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash),

shuningdek, o'quv jarayonining ichki strukturasi yo'l-yo'riq ko'rsatish va o'quvchilar o'quv-bilish topshiriqlarini mustaqil holda bajarishidan iborat harakatdir. Buning yo'l-yo'riq ko'rsatish jihati muallim o'quvchiga o'quv materialini bo'yicha o'rgatadigan narsalar va ular ustida ishlash metodlari bilan izohlanadi. O'quvchilar ana shu asosda o'zlarining ma'lumotlari mazmunini o'zlashtirishga doir faoliyatlarini tashkil qiladilar. Shunday qilib, o'quv jarayonining mohiyati o'quvchi bilish faoliyatining mantiqi hisoblanib, u **birinchidan**, bilishda bizdagi bilimlarning yagona manbasi bo'lib ish amaliyotini o'rganishdan boshlanishi va mavhum fikrlar asosida nazariy umumlashtirish kerakligidan, **ikkinchidan**, bilib olinganlarni, nazariy umumlashtirishlarni, insondagi bilimlar haqiqiylikini yagona obyektiv mezonlari sifatida ham xizmat qiladigan, amaliyotga taqqoslash zarurligidan kelib chiqadi. Bilish murakkab dialektik jarayon bo'lib, jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga o'tish yo'lidir. Dunyoni bilishning, haqiqatni bilishning, obyektiv reallikni bilishning dialektik yo'li shundan iborat. Odatda bilish nazariyasini inikos nazariyasi ham deyiladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi maktab o'quvchilarini yangi bilimlarni faol idrok qilishga, uni havotda qo'llay olishga tayyorlaydi. Bu tasodifiy hodisa bo'lmay, o'quv jarayonining mantiqi shuni taqazo etadi. O'quvchilarning o'qituvchi sabog'ini o'zlashtirish jarayoni bilimlarni idrok qilish, tushunish, mustahkamlash hamda ularni amalda qo'llash bosqichlaridan iborat bo'ladi. Bilimlarni o'zlashtirish voqealardagi narsa va hodisalarni sezish va idrok qilishdan boshlanadi. Bilish faoliyatidagi ikkinchi bosqich-bilimlarni tushunish va umumlashtirish. Uchinchi bosqich-bilimlarni mustahkamlash va qo'llashdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy faoliyatida muvaffaqiyat, avvalo, u ta'limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllaridan iborat umumiy didaktik prinsiplarni qanchalik to'g'ri amalga oshirilishi bilan izohlanadi. Didaktik prinsiplar ta'limning bevosita bilish nazariyasidan, shuningdek, maktabdagi ta'limning maqsadlari va ilmiy mazmunidan, o'quvchilar jamoasining yoshi va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadigan qonuniyatlarni aks ettiradi. O'qitish prinsiplari qandaydir doimiy va o'zgarmaydigan narsa emas. Ularning ayrimlari boshqacha sharoitga bog'iq holda o'zining nomini saqlab, yangi mazmun kasb etadi. Buyuk chech olimi A.Y.Komenskiy olg'a surgan "tabiatga muvofiqlik prinsipi" singari o'zining ahamiyatini yo'qotadi; yana boshqalari esa yangi sharoitda jamiyatning o'qitish jarayoniga qo'yadigan muxim talablarini to'laroq aks ettirishi sababli yetakchi prinsipga aylanadi. Chunonchi, hozirgi paytda o'qitishning tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi prinsiplari alohida ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, mana shu

prinsiplar o'qitish jarayoniga o'zining qandaydir yangiligini qo'shadi, uni nimalar bilandir to'ldiradi. Lekin tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi ta'limga intilish yangilik emas. Uni mamlakatimizda ulug'-bobokalonlarimiz ilk bor Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniylar asoslab berishgan. Masalan: Abu Rayxon Beruniyning fikricha tarbiyalovchi ta'lim paytida kamol toptiruvchi sifatida ko'riladi: u kuzatuvchanlik, fikrlash, nutq, xotira va xayolning rivojlanishini ta'minlaydi, shu tariqa insonni hayotdagi mehnatga tayyorlaydi. Mazkur prinsiplar yangi bo'lmasa ham, maktab rivojining turli bosqichlarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda har xil yo'sinda va to'liq bo'lmagan hajmda amalga oshgan. Buning hammasi jamiyat tomonidan maktab oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga bog'liq bo'lgan. Hozirgi dasturlar ma'lumotning nazariy saviyasiga talablarni oshirishga, maktabda boshlang'ich sinf bollarni o'qitishning dastlabki kunlaridan boshlab bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, ularga darslardagi nazariy tushunchalarga doir bilim hosil qilishga, umumlashtirish va mantiqiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan. Ularda ham ilgari dasturlardagi kabi nazariy bilimlarni o'quvchilarda amaliv ko'nikma va malakalarni hosil qilish bilan bog'lashga jiddiy e'tibor berilgan. Shuningdek, boshlang'ich ta'limning o'quv faoliyatidagi rolini yanada kuchaytirish nazarda tutilgan. Bu esa ongli ravishda o'zlashtirilgan bilimlar, dalillar va nazariyalar o'quvchilarning etiqodiga hamda dunyoqarashiga avlanishi kerakligini bildiradi. O'quvchilarga faol va muntazam mehnat qilish odatini yanada ko'proq singdirish, ularda bilimlarga ishtiyoq uyg'otish va bu bilimlarni umumiy foyda uchun qo'llashga intilishni tarbiyalash zarur. Tarbiyalovchi ta'lim o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy me'yorlarni egallashlarini ham ta'minlashi kerak. Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning aqliy kamol topishi va to'g'ri tarbiyalanishi o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Buning uchun pedagoglarning ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi ham nihoyatda zarur. Ma'lumki, o'qitish jarayoni o'qituvchining va u rahbarlik qiladigan o'quvchilarning izchil faoliyati majmuyidan tashkil topadi. Bunda o'quvchilar faoliyatining muvaffaqiyati o'qituvchining oqilona rahbarligiga va yo'naltiruvchi ishlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Aslida hozirgi paytda yetakchilik qilayotgan tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi ta'lim prinsiplari o'quv jarayoniga, shu jumladan ta'limning asosiy shakli bo'lmish darsga o'z ta'sirini ko'rsatishi lozim. Boshlang'ich sinflarda o'qitish jarayoniga qo'yiladigan talablar jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida ham doim bir xil bo'lmagan. Bu esa jamiyat rivojlanishining qonuniyatlaridan va uning eng muhim vazifasi-yosh avlodni tarbiyalash va o'qitishdan kelib chiqqan. Hozirgi kunning talabi boshlang'ich ta'limda o'quv jarayonini o'quvchilarda faqat

takrorlashga doir fikrlashni emas, balki ijodiy tafakkurni ham shakllantiradigan yo'sinda tashkil qilishdir. Boshlang'ich ta'limda o'qitishdagi muammolarni o'quvchilarning o'quv muammosidan anglash va hal qilishiga qaratilgan bilish faoliyatini tashkil etish, deb tushunamiz. O'qitishdagi muammolilikning muhim belgisi masalani qo'yishdan ko'ra muammoli vaziyatni yaratish ko'proq zarurligidir. Bunda mazkur vaziyatni hayotiy dalillar va hodisalar asosida yaratishni nazarda tutish muhimdir. Chunki, muammoli vaziyat qancha tabiiy shaklga ega bo'lsa, o'quvchilarni faollashtirish va muammoni hal qilishda qatnashishga jalb etish imkoniyati shuncha keng bo'ladi. O'qitishdagi muammolilik an'anaviv didaktikaning asosiy prinsiplari va qoidalarini inkor qilmaydi, balki ularga tayanadi. O'qitishga muammoli yondashishni qollashdan maqsad hozirgi individual o'qitish jarayonini o'quvchilarda ijodiy fikrlashni faol rivojlantirishga yordam beradigan metodlar va usullar bilan to'ldirishdir. Umuman aytganda o'quv jarayonini takomillashtirishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad uning sifatini yangi pog'onaga ko'tarishdir. Shunga ko'ra o'qituvchining faoliyatida qanday yangiliklar bilan yuzaga kelishini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- avvalo, u o'quv materialni shunchaki bayon etmasligi;
- o'quvchilarga tayyor xulosalar hamda umumlashmalarni aytib bermasligi;
- balki ularning fikrini o'rganiladigan obyektga jalb qilishi;
- undan muammo topishi;
- o'quvchilarning o'zlarini mazkur obyektidagi muammoni mustaqil holda o'ylashga o'rgatish va rag'batlantirish;
- muammoli vaziyatni yaratib, ularning diqqatini safarbar qilish;
- tafakkurni faollashtirish;
- ta'limdagi loqaydlikni bartaraf etish;
- o'quvchilarga o'zlaricha mulohaza yuritishga, zarur xulosalar va umumlashmalar chiqarishda yordam berish;
- o'quvchilarni kuzatishga, tasavvur qilishga, eslab qolishga, ijodkorlikka o'rgatish kabilarda yondashuv zarur. Bollarda esa tarbiyalanuvchilaridan olgan bilimlari bilan kuzatilgan hayotiy dalil va hodisalarga munosabat uyg'onishi bilan asolanadi. Shu asosda bollarda to'g'ri xulosalar va umumlashmalar chiqarishga odatlantirish kerak. O'quvchilardan muntazam o'rganishlar va baholash hammasi ta'lim jarayoniga zamonaviy mazmun beradi.

O'zbekiston Respublikasida maktab ta'limini rivojlantirish to'g'risidagi konsepsiyaga muvofiq bola boshlang'ich ta'limni asosan maktabda ustozlarining ta'lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan ijodiyot muassasalarida,

tashkil etiladi. Kichik maktab yoshidagi bollarda milliy vatanparvarlik esa ulardagi o'z tug'ilgan joylarini sevishi, mardona yashash tasavvurlarini muntazam shakllantirilishi bilan amalga oshadi. Shuningdek umumiy ta'lim muassasalariga jalb qilingan bolalar uchun bolalar yashayotgan hududning holi-havfsizligi va beg'uborligi tassavur etilishini o'rgatiladi. Maktablarda va maxallalarda tashkil etilgan maxsus guruxlar yoki markazlarda bu ishlarni takomillashishi ko'zlanadi. Bolalar tarbiyasidagi muntazamlik va izchillikning asosiy sharti u yashayotgan oilasi va maktabi o'rtasida o'zaro yaqin aloqa o'rnatishdir. Bola tarbiyasida oilaning barcha a'zolaridan nafaqat bolalarga nisbatan to'g'ri munosabatni, balki ularning taqdiri uchun yuksak ma'suliyat xissini xam talab qiluvchi qiyin va murakkab ishdir. Oila va maktab hamkorligida tarbiyani xar tomonlama, jumladan ma'naviy, axloqiy, aqliy, estetik, mexnat, jismoniy va vatanparvarlik tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi.

Ma'naviy tarbiyani bolaga o'tmishda Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo'lida kurashgan xalq qaxramonlari xaqida gapirib berish, davlatimizning ramziy belgilari bilan tanishtirish, mustaqillik, Vatan xaqidagi she'r va qo'shiqlarni yod oldirish, qadriyat va an'analarimizni o'rgatish orqali singdirish mumkin.

Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsning bir qator axloqiy jixatlari shakllanadiki, boshqa xech qaysi tarbiya obyektiga oiladagidek yuqori natija bermaydi. Ularga insonparvarlik, mexr-muruvvat, raxm-shafqat, xamdardlik, muomala madaniyati, burchi va vatanga sadoqat prezidentga minnatdorchilik kabi insoniy fazilatlar turadi.

Kelajak avlodga vatanparvarlik tarbiyasini berishda asosan oilaning muxim vazifasi hisoblanadi. Eng avvalo maktabda davlat madhiyasini kuylashga o'rgatish, vatan madhini o'rgatishga chorlovchi ertak yoki asarni oila davrasida o'qish, birga spektakl va kino ko'rish va taxlil qilish, kiyinish madaniyatini shakllantirish, gullar parvarish qilish, rasm solish va xakozolar bolani vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishga imkoniyat yaratadi. Ota-onalar voyaga yetayotgan farzandlarining jismoniy barkamolligiga, o'ta ma'suliyat bilan tarbiya berish lozimligiga e'tibor qartadi. Masalan: ertalabki badantarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to'g'ri va vitaminlashtirilgan ovqat berish, dam olishni, uyquni to'g'ri tashkil etish vaqtida shifokor nazoratidan o'tkazishlari zaruriyat sifatda qaraydi.

Bola hayotida mexnat tarbiyasi ham muhim sanaladi. Bolalarni mexnatga muhabbat ruxida tarbiyalash, ularda mexnat qilish odobini shakllantirish va

kunikmalar xosil qilishda, ularning qiziqishlari xisobga olingandagina erishiladi. Ustozlari bolani maktab yoshida unda mexnat ko'nikma va malakalarini xosil qilishga, mexnatga extiyojni tarbiyalashga, boshqalarning mexnatini qadrlashga, mexnat natijalarini extiyot qilishga o'rgatishga jiddiy e'tibor berishlari lozim. Mexnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saranjom-sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir. Kichik maktab yoshidagi bolalarni oilada tarbiyalashni, ota-onalar bilan hamkorlikni bundan keyin yanada takomilishtirish yullarini izlab topish oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustaxkamlash maktab o'qituvchi-xodimlari pedagogik omillar, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchilar va uslubchilarning muxim vazifasidir. Bolalarni tarbiyalashda davlat axamiyatidagi vazifadir. Uning to'g'ri xal qilinishi tarbiya ishining qo'yilishiga kompleks yondoshishga maktabning, oila va jamiyatchilikning to'liq o'zaro ta'siri va xarakatlarning birligiga bog'liq. Kichik maktab Yoshida bolani vatanga bo'lgan muhabbat va sadoqati hamisha uning xulqi, axloqi, qiziqishi va munosabtlarida ancha ijobiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani maktabga borishidan oldin yoki uydayoq maktab ta'limida, uni vatan tushunchasini yetarli bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirilishi lozim. Bollar bilan ko'proq chiroyli badiiy sahnada Vatan himoyasiga bog'liq mavzularda rol ijro etish ham tarbiyada samara beradi. Tarbiyachilar tomonidan o'tqaziladigan bu singari mashg'ulotlar bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi. Ustozlar so'zini tinglash, o'rtoqlari bilan gaplashmaslik, har bir ustoz tomonidan berilgan savollarga javob berishga harakat qilish, ustiozlar tomonidan aytilgan fikrlarni takrorlashga o'rgatib boriladi. Har bir sinfda qancha mashg'ulot o'tqazish, bolalar boshlang'ich ta'lim-tarbiya dasturida belgilab qo'yilgan. Har bir maktabda boshlang'ich sinflar metodik birlashmalar mavjud bo'lib, unda bolalar kichik maktab yoshida ta'lim-tarbiya dasturining hamma bilimlari bo'yicha metodik qo'llamalar bo'ladi. Yetishmovchiliklarni ya'ni metodik jixatdan, ustoz o'zi tayyorlaydi va bu ishga ba'zan sinfdagi bolalarni jalb etadi. Ustozlar bolani vatanga bo'lgan his-tuyg'ularini shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlar jarayonida yangi pedagogik texnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalanadi, bolani yoshiga, ruxiy-fiziologik xususiyatlari inobatga olinsa vatanparvarlik tarbiyasini berishning samaradorligi oshadi. Har bir boshlang'ich ta'lim ustozlari bolani imkoniyatlarini aniqlab olishi kerak, bolalar o'zi yashayotgan jamoaga munosabatiga qarab bir necha guruxlarga bo'linadi:

1-gurux: Ijobiy xulqli bolalar bo‘lib, ular tez do‘stlashadilar. Ularni vatanni himoya qilishga o‘tkir tushuncha bor. Bu toifadagi bolalar vatanning yuksak peshqadami bo‘lib, vatan sarxadlarida hamisha tashkilotchilik ishlarini o‘rnatishda faol bo‘ladi.

2-gurux: faol tashabbusga qo‘shiladi, ammo beqaror bo‘ladi.

3-gurux: tortinchoq bo‘lib o‘yinda qatnashmaydilar, mashg‘ulotlarda sust bo‘ladilar. Bunday bolalarga aloxida e‘tibor zarur. O‘qituvchi har bir gurux bolalari bilan individual yondoshib, ularni bir-biri bilan o‘zaro munosabatga kirishib, do‘stlashishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy pedagogik vazifasi - bolalarni yuksak ma‘naviy-axloqiy ruxda tarbiyalash qatorida vatanni sevish va faxrlanish tuyg‘ularini rivjlantirishdan iborat. O‘z navbatida maktab o‘quv mashg‘ulotida faol ishtirok etishda ota-onalarga muntazam ravishda yordam ko‘rsatishi lozim. Maktab o‘qituvchi-xodimlarining eng birinchi vazifasi bu maktabda bolalarning ota-onalari va oilasining boshqa a‘zolari ongida bola tarbiyasida vatanning yuksak ehtiromini muhim axamiyatga egaligi chuqur ishonch uyg‘otish hisoblanadi. Bolalar maktab to‘g‘risida ota-onalarda pedagogik bilimlar asosini yaratadi. Ularda tarbiya xaqidagi fanga qiziqish uyg‘otadi. O‘z bilimlarini doimo kengaytirish istagini va unga intilish xissini uyg‘otadi. Keyinchalik esa maktab pedagogik umum ta‘limiga kirishib ketish xissini uyg‘otadi. Maktab ta‘limida bolani har tomonlama, jumladan ma‘naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va vatanparvarlik tarbiyalari birgalikda olib borilib tuyg‘ulari shakllantiriladi. Bola maktabning boshlang‘ich sinfida olgan bilimlarini keyingi yillarda davom ettirishda shundagina qiynalmaydi.

O‘zi tug‘ilgan joyini keng ma‘noda sezish, idrok etishdan boshlanadigan tafakkur va xayolni o‘z ichiga oladigan jarayon bilan tanishish. Bolalarni maktab ta‘limida vatanparvarlik tarbiyasining o‘rni katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bilimlar zaxirasini kengaytirish, aqliy faollikni va mustaqillikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Maktabda yaxshi o‘qitilishi, keyingi xarkatlarda vatan uchun fidoiylilikni tayyorlanishning muxim shartidir. Bola 7-11 yoshdan maktabda a‘lo o‘qishi, ularni maktab ta‘limiga faollik uchun vatanga bo‘lgan tuyg‘usini rivojlantirish yetarli bo‘lishini ta‘minlash boshlang‘ich o‘qituvchisidan katta ma‘suliyatni talab etadi. Maktab ta‘limida boshlang‘ich sinf yoshida bilim tez sur‘atda rivojlanib boradi, boyib boradi. Nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Bolalarda vatanparvarlikni aqliy faoliyatda dastlab muomala orqali, so‘ng mashg‘ulotlar, berish orqali amalga oshiriladi. Tevarak atrof, buyum va narsalar

bolaning sezgi organlariga ya'ni analizatorlariga ta'sir etadi va sezgi jadal rivojlanadi.

Bolalarni vatanparvarlikka hos bilimlarni egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va kunikma egallab olishlari, ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun bulajak mexnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo'lib xizmat qiladi. Maktabning boshlang'ich sinf yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: bolalarda vatan va dunyo to'g'risidagi bilimlar tizimini, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Bilimga doir ruxiy jarayonlarni rivojlantirishda: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutqiga e'tibor berish zarur. Bilishga doir ruxiy jarayonlarni rivojlantirish aqliy tarbiyaning muxim vazifasidir. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni aqliy mexnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchilarni, ya'ni kizikuvchanligini ular aklining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga kizikish xosil kilishdan iborat.

Aqliy malaka va kunikmalarni rivojlantirish, ya'ni eng oddiy faoliyat usullari predmetlarni tekshirish ulardagi muxim va muxim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko'nikma va malakalar, bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo'lib, bolaning bilimlarini chuqur egallab olishga yordam beradi. Eng muximi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmay, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni xal etishga foydalanishga o'rgatish.

Oilada asosan tarbiyani xar tomonlama, jumladan mafkuraviy, axloqiy, estetik, jismoniy va mexnat tarbiyasini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi. Masalan: vatanparvarlik tarbiyasini bolaga o'tmishimizda vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi, va farovonligi yo'lida kurashgan xalq qaxramonlari xaqida gapirib berish, davlatimizning ramziy belgilari haqida tanishtirish, mustaqillik, vatan xaqidagi she'r va qo'shiqlarni yod oldirish orqali singdirish mumkin. Shuningdek farzandlarimizda Vatan ximoyasiga xar doim tayyorlik tuyg'usini shakllantirishdan iborat.

Maktab tarbiyasi jarayonida shaxsning bir qator axloqiy jixatlari shakllanadiki, boshqa xech qaysi tarbiya obykti maktabdagidek yuqori natija berolmaydi. Bularga, vatanparvarlik, mexr-muruvvat, raxm-shavqat, xamdardlik, muomala madaniyati, burch va sadoqat, minnatdorchilik kabi ajoyib insoniy fazilatlar kiradi.

Kelajak avlodga estetik tarbiyani berishda xam maktabning muxim o'rni bor. Maktab tadbirlarida qo'shiqlar kuylanishi, biror ertak yoki asarni bollar davrasida

o‘qish, birga spektakl va kino ko‘rish va taxlil qilish, kiyinish madaniyatini shakllantirish, sinfda gullar parvarish qilish, rasm solish bolada estetik tarbiyani shakllanishidagi jixatlardir. Ustozlar voyaga yetayotgan farzandlarining jismoniy barkamolligiga o‘ta ma’suliyat bilan qarashlari lozim.

Xulosa qilganda bolalarni kichik maktab yoshida vatanni sevish va unga ta’sir etuvchi omillar haqida gapirar ekanmiz, maktabning boshlang‘ich sinf yoshida tarbiya berishda vatanga sadoqatlik, yurakdan faxrlanish kabi hissiyotlarini rivojlantirishga pedagogik yondashish talab etiladi. Bolada bu kabi tasavvurlar oshishi ham kun sayin ortib boradi. Eng asosiysi bollarda mardlik va jasurlikni, sabr-qanoatlikni, mehnatsevarlikni, olijanoblik va vatanparvarlik kabi hislatlarni jo‘shqinlashtirishga imkon yaratadi. Yangicha fikr yondashuvlarni bu kabi xarakteri boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bollarga vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishni yagona maqsad sari intiltirmoqda.

REFERENCES:

1. Quvondiqov, S. S. (2022). Dynamic situation as a meta way of perception and understanding of competitive activity in martial arts.
2. Кувонди́ков, С. (2023). ОЗДОРОВИТЕЛЬНАЯ НАПРАВЛЕННОСТЬ СИСТЕМЫ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 6(3).
3. Кувонди́ков, С. С. (2023). STRUCTURE AND LONG-TERM DYNAMICS OF COMPETITIVE ACTIVITY OF HIGHLY QUALIFIED BASKETBALL PLAYERS. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 6(3).
4. Sidikovich, K. S. (2023). Analysis of national and foreign experiments on the diagnosis of processes for the development of a sense of patriotism. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 16, 243-248.
5. Kuvondikov, S. S. (2023). MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF A SENSE OF PATRIOTISM IN FUTURE EDUCATORS. *Confrencea*, 6(6), 289-292.
6. Sidikovich, K. S. (2023). Integrative-Pedagogical Features of The Development of A Sense of Patriotism in Future Educators. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(2), 259-264.
7. Sidikovich, K. S. (2023). THEORETICAL BASES OF DEVELOPING A SENSE OF PATRIOTISM IN FUTURE TEACHERS BASED ON THE COMPETENCE APPROACH. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 15, 363-366.

8. Kuvondikov, S. (2023). THE CONNECTION OF EMOTIONS WITH THE MENTAL STATE OF HIGHLY QUALIFIED WRESTLERS. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 15, 114-120.
9. Кувондиқов, С. (2022). ГАНДБОЛЧИ ДАРВОЗАБОНЛАР ЎЙИН САМАРАДОРЛИГИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 5(5).
10. Кувондиқов, С. (2022). СПОРТЧИЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ПСИХОЛОГИЯНИНГ ЎРНИ ВА СПОРТЧИЛАРНИНГ ПСИХИК ЖАРАЁНИНИ ЎРГАНИШ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 5(6).
11. Кувондиқов, С. (2022). СВЯЗЬ ЭМОЦИЙ С ПСИХИЧЕСКИМ СОСТОЯНИЕМ БОРЦОВ ВЫСОКОЙ КВАЛИФИКАЦИИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 5(7).
12. Quvondiqov, S. S. (2023). Sport mahoratini oshirish (Yengil atletika). *O'quv qo'llanma*, 1(1), 175.
13. Quvondiqov, S. S., Dusanov, S., Odilov, O., Junayeva, A. (2023). Sport mahorati oshirish (Gimnastika). *O'quv qo'llanma*, 1(1), 180.
14. Quvondiqov, S. S., Abdulaxatov, A., Toshpulatova, A. T. (2023). Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti. *O'quv qo'llanma*, 1(1), 175.
15. Quvondiqov, S. S. (2023). Vatanparvarlik tarbiyasiga kompetensiyaviy yondashuvni tadbiq etish ijtimoiy zarurat sifatida. *Pedagogika*, 1(3), 33-37.
16. Quvondiqov, S. S. (2023). VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH JARA YONLARINI TASHXIS ETISHGA DOIR MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR T AHLILI. *TDPU Ilmiy axborotlari*, 1(3), 248-254.
17. Quvondiqov, S. S. (2022). Sport pedagogik mahoratni oshirish (Sport o'yinlari). *Darslik*, 1(1), 200.
18. Quvondiqov, S. S. (2022). Sport pedagogik mahoratni oshirish (Futbol). *Darslik*, 1(1), 150.
19. Кувондиқов, С. С. (2022). Кўп йиллик тайёргарлик босқичида енгил атлетика турларига ўқувчи ёшларни саралашнинг педагогик технологияси. *ЎзМУ*, 1(4), 104-107.
20. Кувондиқов, С. С. (2022). Футбол спорт турида тактика ва тактик тизимларнинг аҳамияти. *УзМУ*, 1(2), 77-80.
21. Мирахмедов, Ф. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПОДГОТОВКИ ВОЛЕЙБОЛИСТОК 14–15 ЛЕТ К СОРЕВНОВАНИЯМ С

УЧЕТОМ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 6(3).

22. Mirakhmedov, F. (2023). THE ACCURACY OF THE MOVEMENTS OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS FORMATION STYLES. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 15, 121-123.

23. Мирахмедов, Ф. (2022). ТАЛАБАЛАРНИ МУСТАҚИЛ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ ТАЙЁРГАРЛИГИГА ЎНАЛТИРИШ. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 9, 53-57.

24. Miraxmedov, F. T. (2022). Dzyudo musobaqalarida eng ko'p qo'llaniladigan usullar va ularning ahamiyati. *TDPU*, 1(5), 217-221.

25. Miraxmedov, F. (2022). Using multimedia tools to visualize the actions of young Greco-Roman wrestlers.

26. Мирахмедов, Ф. Т. (2022). Соғлом турмуш тарзини болаларда шакллантиришда оила ва атроф муҳитнинг аҳамияти. *ЎЗМУ хабарлари*, 1(2), 119-120.

27. Мирахмедов, Ф. (2022). ПРИМЕНЕНИЕ МУЛТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЛАСТИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 5(7).

28. Мирахмедов, Ф. (2022). ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ФИЗКУЛЬТУРНЫХ ЗАНЯТИЙ ВЗРОСЛОГО НАСЕЛЕНИЯ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 5(6).

29. Мирахмедов, Ф. (2022). ЖИСМОНИЙ МАШҚЛАР ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРДА ЧАРЧОҚНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ВОСИТАЛАРИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 5(5).

30. Miraxmedov, F. (2020). Improvement of Physical Education and Sport Efficiency in the Continuous Education System. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

31. Mirakhmedov, F. T. (2020). Methods of development of speed abilities of swimmers. *Theoretical & Applied Science*, 11(91), 51-54.

32. Mirakhmedov, F. T., Yunusova, D. S., & Tozhiboev, M. M. (2020). Methods of development of speed abilities of swimmers. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 11 (91), 51-54.

33. Мирахмедов, Ф. (2018). Умумтаълим мактабларида миллий ҳаракатли ўйинларнинг ижтимоий педагогик асослари. *Халқ таълими*, 1(1), 70-73.

34. Исаков, В. Ю., Исаков, М. Ю., & Муқимжонова, У. В. К. (2022). Микробиогенные элементы в системе «порода-почва-растение» на лугово-

оазисных почвах западной Ферганы. *Universum: химия и биология*, (9-1 (99)), 45-50.

35. Mukimjonova, U. V., Khojaeva, N. T., & Mahmutaliyev, R. (2023). Oriental lentil-a biological description of the plant *Lens orientalis* Schmall. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(11), 604-606.

36. Mukimjonova, U. V., Khojaeva, N. T., & Mahmutaliyev, R. (2023). Biological description of pea (*Cicer arietinum*) plant. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(11), 602-603.

37. Isaqov, M. Y., Mukimjonova, U. V., & Abduqayumova, S. A. (2023). Thorny licorice (*glycyrrhiza aspera* pall) biological description of plants and their role in medicine. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(11), 599-601.

38. ЛАБИБ, С. М. О., & НАДИМ, М. Х. (2023). ALISHER NAVOIYNING XUROSONDA QOLDIRGAN IZLARI VA ADABIY AN'ANASINING DAVOMI. *ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI*, 3(1).

